



## O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR

*PhD, dots. Tursunov Bektuxammad*  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
ORCID: 0000-0001-9297-8361  
[tursunov6b60@gmail.com](mailto:tursunov6b60@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayonidagi mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar kompleks tarzda tadqiq etilgan. Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning rivojlanish xususiyatlari tizimli asosga keltirilgan. Sanoat tarmoqlari innovatsion rivojlanish jarayonlaridagi munosabatlarni tashkiliy asosi va natijadorligini hozirgi holati baholangan. Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, innovatsion taraqqiyot, innovatsion infratuzilma, innovatsion samara, sanoat ishlab chiqarish ekotizimi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish shakllari, sanoat tarmoqlari eksport raqobatbardoshligi, su'niy intellekt texnologiyalari transformatsiya tizimi.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

*PhD, доц. Турсунов Бекмухаммад*  
Ташкентский государственный университет востоковедения

**Аннотация.** В статье комплексно исследованы существующие проблемы и перспективные возможности обеспечения инновационного развития промышленных отраслей Узбекистана. Факторы, влияющие на процессы инновационного развития, а также их особенности развития систематизированы. Оценены организационные основы и текущая эффективность взаимодействий в процессах инновационного развития отраслей. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации по устранению выявленных проблем и повышению эффективности инновационного развития промышленных отраслей.

**Ключевые слова:** инновационная экономика, инновационное развитие, инновационная инфраструктура, инновационный эффект, экосистема промышленного производства, формы финансирования инновационных проектов, экспортная конкурентоспособность отраслей, трансформация технологий искусственного интеллекта.

## ENSURING THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL SECTORS IN UZBEKISTAN: CURRENT CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES

PhD, assoc. prof. **Tursunov Bekmukhammad**  
Tashkent State University of Oriental Studies

**Abstract.** The article comprehensively examines the existing problems and promising opportunities for ensuring the innovative development of Uzbekistan's industrial sectors. Factors affecting the processes of ensuring the innovative development of industries and the features of their development are presented on a systematic basis. *The current state of the organizational basis and effectiveness of relations in the processes of innovative development of industrial sectors is assessed. Scientific proposals and practical recommendations have been formulated to address existing problems in the process of ensuring the innovative development of industrial sectors.*

**Keywords:** innovative economy, innovative development, innovative infrastructure, innovative efficiency, industrial production ecosystem, forms of financing innovative projects, export competitiveness of industrial sectors, artificial intelligence technology transformation system.

### **Kirish.**

Mamlakat iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida ilmiy-texnik taraqqiyotni jadal rivojlanishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning: korporativ, tarmoq va mintaqaviy darajadagi innovatsion omillari tizimli kombinatsiyasining tegishli yo'nalishlarini belgilash bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tuzilmaviy asosini takomillashtirishga imkoniy beradi. Bu boradi tegishli natijadorlik asosi ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasidan boshlab, xo'jalik subyektlarining iste'mol bozoridagi tovarlar tarkibini o'zgartirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Tovarlarning iste'mol va almashinuv xususiyatlaridagi tegishli afzallik, ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishini ta'minlashning pirovord natijasini o'zida namoyon etadi. Shu boisdan, iqtisodiyotning tarmoq va sohaları faoliyatini innovatsion rivojlanish jarayonini tashkil etishni ta'minlash va faoliyat samarasini baholash keng masshtabga ega bo'lgan munosabatlar majmuasi deb xulosa qilish o'rinli hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlarini innovatsion g'oyalar iste'molchisi sifatida ishlashi va ushbu tarmoqlarda mahsulotlarning iste'mol xususiyatlaridagi afzalliklari sanoat ishlab chiqarishni innovatsion rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan mamlakatlar tajribasida o'z ifodasini topadi.

Sanoat tarmoqlarining innovatsion salohiyatini yuqori darajaga ega bo'lishiga qaramasdan iqtisodiyot subyektlari tomonidan ishlab chiqish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali boshqarish usullarini shakllantirish va ulardan foydalanish darajasining past sur'artlari, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish shakllarini rivojlantirishda risk darajasining yuqori ko'rsatkichlarini saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Bu holat milliy ishlab chiqarishning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayoni bilan bog'liq muammolar kompleks ahamiyatga ega bo'lib, innovatsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini tanlovlar asosida moliyalashtirishning yangi ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, milliy iqtisodiyotda innovatsion mahsulotlar va yechimlarni ishlab chiqarishning zamonaviy "zanjiri" va yagona tizimini yaratish orqali mamlakatda innovatsiya va texnologiyalar sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh va yuqori texnologiyali mahsulotlarni arzonlashtirilgan va hammabop katta hajmli ishlab chiqarishni tashkil etish orqali qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratish (Farmon,

2022) kabi qator holatlar mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishni dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlari faoliyatini innovatsion rivojlanish jarayonlarini samarali tashkil etish tizimi va uni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan Vatersonning (1983) ilmiy izlanishlari asosini tashkil etadi. Iqtisodchi olim o'z tadqiqotlarida 1980-yillarda sanoat ishlab chiqarishning beshinchi texnologik ukladini shakllantirishga asos bo'lgan mikroelektronika, informatika, kosmik tadqiqotlar va boshqa omillarning o'ziga xos yutuqlarini tahlil qiladi. Lundvall (2010) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishning pasayishi, narxlarning ko'tarilishi, ishsizlik va aholi turmush darajasining umumiy pasayishi bilan bog'liq inqirozlarning asosiy sabablari, innovatsion jarayonlarga bog'liq holda tadqiq etiladi. Iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlarda innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarining pastligi ishlab chiqarish va iste'mol bozoridagi nomuvofiqlikning ortib borishini asosi ekanligi qayd etiladi. Bepalikov (2007) tadqiqotlarida sanoat tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish tamoyillariga alohida e'tibor beriladi. Tadqiqot jarayonida sanoat tarmoqlarini innovatsion rivojlanishini boshqarish bo'yicha mahalliy va xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganilib, sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishiga doir zarur tajribalarni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar beriladi. Eskindarova (2016) ilmiy rahbarligidagi tadqiqotlarda sanoatni innovatsion asosda muvozanatli rivojlanishining kombinatsiyasini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi. Sanoatning texnologik tuzilmalari konsepsiyasiga muvofiq sanoat tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning bozor va davlat mexanizmlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan modellarni o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritib beriladi. Almrshed (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishning vertikal integratsiyalashgan tizimlarini shakllantirish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan. Yarkovanning (2025) mamlakat sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlashga doir tadqiqotlarida sanoat tarmoqlaridagi innovatsion jarayonlarni tartibga solishda hukumat ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq tegishli mexanizmlarni shakllantirish jarayoni ko'rib chiqiladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Ibragimova va Salomovalar (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatini intellektual platforma asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida, intellektual platforma asosida ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishning uslubiy jihatlari asoslab beriladi. Shadiyeva (2020) tadqiqotlarida iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishiga asos bo'lgan turli nazariy qarashlar o'rganiladi. Jahon tajribasida innovatsion faoliyatni investitsiyalash modellarini tadqiq etish va xalqaro miqyosdagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash orqali innovatsion rivojlanishning institutsional tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Karabayeva (2018) ilmiy tadqiqotlarida innovatsiyalarning hayotiylik sikli, bu borada biznes amaliyotining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish manbalariga bog'liqligi qayd etiladi. Xususiy sektorga asoslangan, moslashuvchan, manevrli ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan bozor sharoitlarini yaratish borasida qator takliflar beriladi. Abduraxmanova va Zakirovalar (2024) tomonidan sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash va uni samarali boshqarishda strategik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sanoat korxonalarining bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishi, resurslardan samarali foydalanishi hamda boshqaruv qarorlarini strategik asosda qabul qilishi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillari sifatida o'rganilgan. Begalov (2024) tadqiqotlarida innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar tahlil qilingan. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qaralib,

ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi o'rni yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarning fundamental asoslari va sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda innovatsion omillardan maqsadli foydalanish imkoniyatlari zaruriy tartibda asoslangan. Ammo, sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayoni bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishning istiqbolli imkoniyatlari tegishli tartibda tadqiq etilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlashning mavjud muammolari va istiqbolli imkoniyatlarini o'rganishga asoslangan mazkur tadqiqot ishida mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**


Jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining barqaror o'sish tendensiyalari sanoat ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish markazlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu markazlarning shakllanishi xalqaro texnologiyalar almashinuvini muvofiqlashtirishga olib keldi. Natijada, XX-asrning 80-yillaridan XXI-asr boshlariga qadar xalqaro savdoda texnologiyalarni ayriboshlash hajmi qariyb 3 barobarga ortdi. Xalqaro kapital harakatini dinamik sur'atlarda o'sish ko'rsatkichlari sanoat ishlab chiqarishning tuzilmaviy asosini tubdan takomillashtirish hisobiga tayyor sanoat mahsulotlarining xalqaro savdodagi hajmini 4 barobarga oshirishga olib keldi.

Sanoati jihatidan taraqqiy topgan mamlakatlarda ilm-fan va texnologiyalar rivoji, integratsiya jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan transmilliy kompaniyalar faoliyatini rivojlantirishga turtki berdi. Bu orqali rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdoga to'siq bo'layotgan tarif va notarif to'siqlarni chetlab o'tish ishchi kuchini arzon o'zlashtirish hisobiga mahsulot tannarxini shakllantirishda ma'lum ustuvorliklarni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan texnologiyalar oqimining ortishi sanoat ishlab chiqarishning milliy va mintaqaviy tuzilmalarini shakllantirishda sifat o'zgarishlarini ta'minlash, iqtisodiyotni texnologik rivojlanish bosqichida asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish bilan bog'liq natijadorlikka erishish, kapitalning hududiy va tarmoq tarkibiga asosan investitsiya va iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi.

Mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish doirasidagi ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlar yuqori texnologiyali tizimni o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu esa, sanoat ishlab chiqarishni yuqori texnologiyali tizim ta'sirida rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan maqsadli foydalanish imkoniyatini cheklanishiga sabab bo'ldi. Hududiy va tarmoq jihatidan yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishning cheklangan amaliy natijalari innovatsion yondashuvlar zaruriyatini yuzaga keltirdi. Mazkur zaruriyatning muayyan asosi sanoat ishlab chiqarishni innovatsion rivojlanish tizimini shakllantirishning quyidagi jihatlarini o'zida aks ettiradi:

- sanoat tarmoqlarida intellektual va tashkiliy kapital muvofiqligini ta'minlashda iste'mol bozorining o'zgaruvchan talabini nazorat qilish jarayoniga nisbatan ehtiyojning ortib borishi;
- sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va tarmoqning global qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini ta'minlash jarayonini zamonaviy texnologiya asosida qo'llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirish;
- hududlarda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari faoliyatini shakllantirishga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirishda raqobatbardoshlik va innovatsion salohiyatni ta'minlovchi omillarni maqsadli kombinatsiyasini ta'minlash;

- global iqtisodiy munosabatlar tizimida mamlakat hududlarining potensial iqtisodiy o'sish nuqtalarini shakllantirish hisobiga iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
  - sanoat ishlab chiqarishning tarmoq, hududiy, texnologik asoslari o'rtasida integratsion munosabatlarni tashkil etishning tegishli samaradorligini ta'minlash va boshqalar.
- Sanoat ishlab chiqarishni innovatsion rivojlanish tizimini shakllantirish zaruriyati innovatsion rivojlanishni ta'minlash dilemmasida o'z ifodasini topadi. Ushbu dilemmaning tegishli asosini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq (1-rasm).



**1-rasm. Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash dilemmasi**

*Manba: tadqiqot natijalariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan.*

Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash dilemmasi sanoatni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish jarayonidagi maqsad va vazifalarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiy manfaatlar o'rtasida yuzaga keladigan tanlov muammosini hal qilishning optimal imkoniyatlarini o'zida mujassam etadi.

Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash dilemmasida sanoat tarmoqlarining barqarorlik rivojlanishini ta'minlash tizimi markaziy o'rin egallaydi. O'z navbatida sanoat ishlab chiqarishning milliy va mintaqaviy tizimini ilmiy-texnik salohiyatidan samarali foydalanish moliyalashtirish omillari, inson kapitali, texnologiyalar transformatsiyasi bilan bog'liq muvofiqlikni ta'minlashga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishning milliy va mintaqaviy tizimini ilmiy-texnik salohiyatidan samarali foydalanish sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini bozor samarasini o'zida namoyon etadi. Innovatsion faoliyatni bozordagi iqtisodiy natijasi umumiy samaradorlik (mahsulot raqobatbardoshligi, tarmoqning investitsion samaradorligini ortishi, ishlab chiqarishning kapital sig'imi)ning real holati to'g'risida mavjud xulosalarni kompleks asosga keltirishga ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash dilemmasida sanoat tarmoqlari innovatsion rivojlanish modelining tashkiliy asosini shakllantirish jarayoniga alohida e'tibor berilishi, tegishli modelga asosan innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish tizimini bosqisima bosqich amalga oshirishni muvofiqlashtirishga asos yaratadi. Tarmoqlarining innovatsion rivojlanish

strategiyasiga muvofiq innovatsion rivojlanish modelining tashkiliy asosi shakllantiriladi. Tegishli modelga asosan sanoat ishlab chiqarishning texnik va texnologik asosini boshqaruv tizimi takomillashtirib boriladi.

Sanoat tarmoqlarining barqarorlik rivojlanishini ta'minlash tizimining faoliyat natijasi sanoat ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish jarayonini zaruriy infratuzilmasini tashkil etishni taqozo etadi. Sanoat ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish jarayonini infratuzilmasi davlatning sanoat tarmoqlarini texnologik taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan siyosat orqali tartibga solinadi. O'z navbatida, mazkur siyosat sanoat tarmoqlarining innovatsion faoliyatini bozor transformatsiyasini ta'minlash imkoniyatini beradi. Tarmoqlarning innovatsion rivojlanishini ta'minlash dilemmasi sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq tafovutni qisqartirish, tarmoqlarning innovatsion salohiyatini baholash, innovatsion rivojlanish va boshqaruv usullarini o'lchashga qaratilgan uslubiy vositalarni ishlab chiqish zaruriyatini belgilab beradi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish jarayonida tegishli infratuzilma faoliyatini yo'lga qo'yish, sanoat ishlab chiqarish ekotizimini shakllantirish, sanoat tarmoqlari eksport raqobatbardoshligini ta'minlashga doir innovatsion loyihalarni moliyalashtirish shakllarini keng ko'lamlı diversifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Umumiy natijada 2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida innovatsiyaga sarflangan mablag'lar hajmi qariyb ¼ barobarga ortdi (1-jadval).

## 1-jadval

## 2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar hajmi ( mlrd. so'mda) (stat.uz, n.d.)

Hududlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Sarflangan mablag', mln so'm	Foizda	Sarflangan mablag', mln so'm	Foizda	Sarflangan mablag', mln so'm	Foizda
O'zbekiston Respublikasi	29 664	100,0	32 472	100,0	37 164	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 595	5,4	1 364	4,2	2 000	5,4
Andijon viloyati	1 868	6,3	2 083	6,4	2 359	6,3
Buxoro viloyati	1 834	6,2	2 043	6,3	2 317	6,2
Jizzax viloyati	412	1,4	459	1,4	520	1,4
Qashqadaryo viloyati	802	2,7	894	2,8	1 005	2,7
Navoiy viloyati	1 099	3,7	1 227	3,8	1 373	3,7
Namangan viloyati	986	3,3	1 101	3,4	1 232	3,3
Samarqand viloyati	2 662	9,0	2 981	9,2	3 332	9,0
Surxandaryo viloyati	622	2,1	695	2,1	778	2,1
Sirdaryo viloyati	673	2,4	751	2,3	882	2,4
Toshkent viloyati	1 541	5,2	1 720	5,3	1 949	5,2
Farg'ona viloyati	1 694	5,7	1 888	5,8	2 111	5,7
Xorazm viloyati	1 717	6,1	1 911	5,9	2 256	6,1
Toshkent shahri	12 026	40,5	13 456	41,4	15 050	40,5

2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida innovatsiya sarflangan mablag'lar hajmining qariyb 50 foizi Samarqand viloyati va Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Surxandaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida jami innovatsiya sarflangan mablag'larning 50 foizi to'g'ri keladi.

2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida innovatsiyaga sarflangan mablag'lar hajmi va hududlar kesimida yalpi sanoat ishlab chiqarish o'rtasida integral bog'liqlik tahlil qilinganda, respublikaning Andijon, Navoiy, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida qariyb 64 foiz sanoat ishlab chiqarish hajmi to'g'ri keladi (2-jadval).

2-jadval

**2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmi (trln. so'mda) (stat.uz, n.d.)**

Hududlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, trln so'm	Foizda	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, trln so'm	Foizda	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, trln so'm	Foizda
O'zbekiston Respublikasi	533 346,1	100	637 530,6	100,0	867 924,0	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17 794,6	3,3	18 803,1	3,0	24 598,3	2,8
Andijon viloyati	54 122	10,2	73 579,3	11,5	90 627,9	10,4
Buxoro viloyati	27 245,2	5,1	31 633,9	5,0	42 317,3	4,9
Jizzax viloyati	11 149,5	2,1	19 000,6	3,0	25 812,4	3,0
Qashqadaryo viloyati	22 814,7	4,3	28 259,6	4,4	39 488,1	4,6
Navoiy viloyati	84 144,6	15,8	101 594,8	15,9	145 069,6	16,7
Namangan viloyati	18 241,8	3,4	20 826,5	3,3	31 958,9	3,7
Samarqand viloyati	29 373,7	5,5	32 676,8	5,1	46 213,8	5,3
Surxandaryo viloyati	7 298,7	1,4	8 745,4	1,4	14 888,7	1,7
Sirdaryo viloyati	12 175,2	2,3	15 190,7	2,4	19 893,4	2,3
Toshkent viloyati	93 002,2	17,4	105 762,5	16,6	139 124,8	16,0
Farg'ona viloyati	30 390,5	5,7	36 661,2	5,8	48 070,7	5,5
Xorazm viloyati	18 325,8	3,4	21 167,9	3,3	29 100,1	3,4
Toshkent shahri	107 267,6	20,1	123 628,3	19,4	170 760	19,7

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida O'zbekiston Respublikasi yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmining qariyb 36 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayonlari bilan bog'liq tahlil natijalarini o'zida aks etgan yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- respublika hududlarida innovatsiyalarga nisbatan sarflangan mablag'lar hajmi o'rtasida keskin tafovut mavjud. Yuqori darajadagi tafovutning mavjudligi hududlar o'rtasida sanoat ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish darajasini pasaytiradi. Umumiy natijadorlik, hududlarda innovatsion rivojlanishni samarali boshqarish va sanoat ishlab chiqarish ekotizimi o'rtasida nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi;

- tahlil natijalari, 2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining hududlari kesimida innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar va ushbu yillarda hududlar kesimida yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlik kuchli integral asosga ega emas. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarish bilan bog'liq mavjud infratuzilmaga ega bo'lgan hududiy ustuvorlik

ishlab chiqarish jarayonida ham o'zlashtiriladigan innovatsion texnologiyalar bo'yicha tafovutni vujudga keltirmoqda;

- sanoat ishlab chiqarish hajmida ustuvor hisoblangan hududlarda yuqori texnologiyali sanoatning rivojlanish omillari ta'sirida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish shakllari kengayib, sanoat ishlab chiqarish tuzilmasini tarkibiy asosi bilan bog'liq strategik yo'nalishlarni belgilashga asos yaratadi;

- sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlarda markazlashgan texnik va texnologik imkoniyat ishlab chiqarishning potensial imkoniyatlardan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan malakali ishchi kuchini to'planishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat hududlar o'rtasida sanoat ishlab chiqarishni innovatsion asosda rivojlantirishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq farqlanish darajasini saqlanib qolishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayonidagi mavjud muammolarni bartaraf sanoat sohasini tizimli asosda innovatsion faolligini oshirishga xizmat qiladigan omillarning maqsadga muvofiq bo'lgan kombinatsiyasini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, mazkur yo'nalishda tegishli samaradorlikni ta'minlashda quyidagi vazifalarni amaliy ijrosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- hududlarda sanoat tarmoqlari faoliyatini innovatsion rivojlanish jarayonlarini ta'minlashga xizmat qiladigan mavjud omillar va tegishli shart-sharoitlarni maqsadli dilemmasini shakllantirish orqali yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishni tashkil etishning potensial imkoniyatlarini tizimlashtirish;

- sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni samarali tashkil etishning raqamli tizimi va su'niy intellektga asoslangan transformatsiya modellarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish orqali innovatsion samara masshtabini kengaytirish;

- hududiy sanoat markazlari o'rtasida kadrlar taqimotini tashkil etishning bozor mexanizmiga asoslangan chora tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali innovatsiyalardan samarali foydalanishning tashkiliy-institutsional tizimini muvofiqlashtirish;

- eksport raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan modelga asosan hududlarda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish jarayonini tashkiliy asosi va taqsimotini shakllantirish;

- sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanish jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan hududiy, tarmoq va milliy iqtisodiyot doriyasidagi dasturlarini ishlab chiqish;

- sanoat tarmoqlari doirasida innovatsion texnologiyalarni ayrboshlash tizimini tashkil etish orqali sanoat ishlab chiqarishning iqtisodiy tizimida innovatsiyalarni hayotiylik sikli bosqichlarida tegishli samaradorlikni ta'minlash va boshqalar.

### **Adabiyotlar/Lumepamypa/References:**

Lundvall B.A. (2010) *National systems of innovation: Toward a theory of innovation and interactive learning*. London: Anthem Press.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2022) *2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida*, PF-165-son, 6-iyul.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (n.d.) *Rasmiy statistik ma'lumotlar*. Available at: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Waterson M. (1983) *The economics of industrial innovation: Christopher Freeman (2nd edn.)*. London: Frances Pinter.

Абдурахманова Ш.Р. and Закирова З.Р. (2024) *Саноат корхоналарида рақобатбардошликни бошқариш стратегиясининг ўзига хос хусусиятлари. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби илмий журнали*, 4(05), pp. 26–31.

Алмршед С.К.Х. (2021) *Управление стратегическим развитием инновационного потенциала промышленного предприятия. PhD dissertation abstract.* Челябинск.

Бегалов Б.А. (2013) *Основные тенденции развития инновационной экономики. Экономический вестник Узбекистана, 3-4, pp. 107-110.*

Беспаликов В.П. (2007) *Механизмы инновационного развития отраслей промышленности. PhD dissertation.* Москва.

Ибрагимова С.А. and Саломова С.С. (2022) *Саноат корхоналарини ривожлантиришда интеллектуал платформа ва инновацион технологияларни самарали қўллаш.* Тошкент: Университет.

Карабаева Г. (2018) *Актуальные вопросы инновационного развития промышленности. Экономика и инновационные технологии, (2), pp. 146-153.*

Шадиева Д.Х. (2020) *Миллий иқтисодиётнинг инновацион ривожланишини инвестициялашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. PhD dissertation abstract.* Тошкент.

Эскиндаров М.А. (ed.) (2016) *Инновации в высокотехнологичных отраслях промышленности: методическая и организационно-институциональная поддержка.* Москва: Когито-Центр.

Яркова Т.М. (2025) *Обзор инновационного развития промышленности в России. Вопросы инновационной экономики, 15(2), pp. 489-504.*